

Hududlarining Investitsion Jozibodorligini Statistik Tahlili (Qoraqalpog‘iston Respublikasi Misolida)

A. Nasrullayev Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

A. Turg‘unboyev Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali Biznesni boshqarish ta‘lim yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

O. N. Xaitov Sharof Rashidov

Samarqand davlat universitetining Kattaqo‘rg‘on filiali assistenti

Anotatsiya: Ushbu maqolada mazkur sohadagi ishlarning holatini tahlil qilish investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va to‘la-to‘kis amalga oshirishga, investitsiyalarni jalb etish va o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim tizimli kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, investitsiya dasturini shakllantirishning amaldagi tizimi istiqbolli investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich tayyorlashni, loyiha hujjatlari o‘z vaqtida ishlab chiqilishini ta‘minlamayapti, bu esa moliyalashtirishning ochilishi, mablag‘lar o‘zlashtirilishi, oqibatda esa quvvatlar ishga tushirilishi kechiktirilishiga olib kelmoqda. Investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va monitoring qilish jarayoniga ilg‘or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etilmagan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, innovatsiya faoliyati, qimmatli qog‘ozlar, tashkiliy boshqarish, ijtimoiy sohalar, milliy iqtisodiyot, xo‘jalik subyektlari, kapital, fond bozori, investitsiyalar, aholining shaxsiy jamg‘armalari.

Qoraqalpog‘iston Respublikasida investitsiya dasturida nazarda tutilgan investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish inson kapitalini rivojlantirish, mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish joylarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish hamda hududlarni obodonlashtirish va xalq farovonligi darajasini oshirishning g‘oyat muhim omili hisoblanadi.

Iqtisodiy rivojlanish darajasi avvalo investitsiya faoliyati taraqqiyotiga, investitsiya muhitiga bevosita bog‘liq. Shu bois mamlakatimizda investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish muhim vazifa deb qaralmoqda shu maqsatda iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub‘ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlardan erkin foydalanishni ta‘minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmog‘da.

Mazkur sohadagi ishlarning holatini tahlil qilish investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va to‘la-to‘kis amalga oshirishga, investitsiyalarni jalb etish va o‘zlashtirishga to‘sqinlik qilayotgan ayrim tizimli kamchiliklar mavjudligini ko‘rsatdi. Xususan, investitsiya dasturini shakllantirishning amaldagi tizimi istiqbolli investitsiya loyihalarini bosqichma-bosqich tayyorlashni, loyiha hujjatlari o‘z vaqtida ishlab chiqilishini ta‘minlamayapti, bu esa moliyalashtirishning ochilishi, mablag‘lar

o'zlashtirilishi, oqibatda esa quvvatlar ishga tushirilishi kechiktirilishiga olib kelmoqda. Investitsiya dasturlarini ishlab chiqish va monitoring qilish jarayoniga ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari tatbiq etilmagan.

Qoraqalpog'iston Respublikasi iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va hudud korxonalarining innovatsion faoliyatini jadallashtirish, modernizatsiyalash sharoitida esa investitsiyalarni samarali boshqarish va bu boradagi vazifalarni izchil amalga oshirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Innovatsion iqtisodiyotga investitsion resurslarni jalb qilish murakkab jarayondir, chunki bu chet el investitsiyalarini ham qo'shgan holda, barcha potensial mavjud innovatsion investitsion resurslar imkoniyatlarini strategik safarbar etishni talab etadi. Innovatsion investitsiyaning o'zi iqtisodiyot rivojlanishi, jumladan, unda bandlik darajasi o'sishi, yuqori ish haqi va mehnat unumdorligi oshishi, bundan tashqari real sektorni rivojlantirish va modernizatsiyalash ko'rinishlaridagi katta iqtisodiy samaraga olib keladi.

Shu bois investitsion jarayonlarni boshqarish investitsiyalash ob'ektlari egalari va investorlarning ob'ektiv manfaatlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilsa, ko'zlangan samaraga erishiladi. Bu borada chet ellik investorlarning Qoraqalpog'iston Respublikasida olgan daromadlarini qaytadan investitsiya sifatida kiritish bo'yicha hech qanday cheklovlar yo'q, chet ellik investor daromadi, ularning xohishiga ko'ra, har qanday shaklda ishlatilishi mumkin.

Fikrimizcha «Investitsiya muhiti – bu xorijiy kapital qo'yilmalarining qaltislik darajasini va ulardan mamlakatda samarali foydalanish imkoniyatlarini oldindan belgilaydigan iqtisodiy, siyosiy, yuridik va ijtimoiy omillar yig'indisidir. Investitsiya muhiti investitsiya resurslarini joylashtirish uchun umumiy mezon bo'lib, birinchi navbatda, kapital mablag'larning daromadlilikini ta'minlaydi. Sodda qilib aytganda, investitsiya muhiti investitsiya munosabatlarini amalga oshirish mumkin bo'lgan imkoniyatlar va qulayliklar majmuasini o'zida aks ettirgan voqelikdir. Investitsiya muhitini yaxshilashdan maqsad investitsiya salohiyatini oshirish uchun zarur va maqbul shart-sharoitlarni yaratish, investitsiya faoliyatini jadallashtirish va pirovardida, iqtisodiyotni yuksaltirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish imkonini yaratishdan iborat.

Har bir hududdagi investitsiya muhiti, birinchi navbatda, uning siyosiy barqarorligida namoyon bo'ladi. Xuddi ana shu omil xorijlik investorlarga uzoq muddatli shartnomalar asosida boshqa mamlakatga o'z resurslarini kiritish imkonini beradi. Demak, investitsiya muhiti investor uchun muhim bir shart: investor u yoki bu mamlakatga kiritayotgan kapitali xatari haqida o'ylab ko'radi. Buning uchun u kapital xatariga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni e'tiborga oladi: mamlakat ichkarisidagi siyosiy barqarorlik; mintaqadagi yaqin qo'shnichilik munosabatlari; hukumatning investitsiya munosabatlarini rivojlantirishga qaratilgan qonun-qoidalarining mukammallik darajasi.

Barcha sohalardagi ijobiy natijalar qatorida investitsiyalar hajmi ham sezilarli darajada oshdi. 2023- yilning yanvar-mart oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 2076,7 mlrd. so'm o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 118,6 % ni tashkil etdi. Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 82,7 %, yoki 1716,1 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 108,7 % tashkil etdi. Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 17,3 %, yoki 360,6 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 martani tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 595,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 28,7 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 12,3 % i yoki 255,5 mlrd. so'mi o'zlashtirildi. Jami xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 890,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 192,2 % va shuningdek jami hajmdagi ulushi 42,9 % ni tashkil etdi

Shuningdek, Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablagʻlari hisobidan 159,9 mlrd. soʻm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,7 % ini tashkil etib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 63,2 % ni tashkil etdi), Oʻzbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 185,0 mlrd. soʻm (8,9 % va 2,3 martaga oshdi), Xorijiy investitsiyalar 600,3 mlrd. soʻm (28,9 % va 7,1 martaga oshdi), Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 105,1 mlrd. soʻm (5,1 % va 35,3 % ni tashkil etdi), Respublika byudjeti 172,8 mlrd. soʻm (8,3 % va 2,5 martaga oshdi), Suv taʼminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgʻarmasi 2,8 mlrd. soʻm (oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 57,8 foizli punktga oshdi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar oʻzlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar oʻsish surʼatlarini moliyalashtirish manbalari boʻyicha eng yuqori koʻrsatkich Respublika byudjeti hisobidan moliyalashtirilgan investitsiyalar boʻlib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 2,5 martaga oshdi. Respublikaning barcha tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan taʼminlash ishlari va gaz taʼminoti loyihalarining bajarilishi, va shuningdek temir yoʻl yoʻlovchi transporti va yuk transportini yanada takomillashtirish ishlari boʻyicha loyihalar investitsion faollik bilan izohlash mumkin. Shuningdek, yuqori oʻsish surʼati koʻrsatkichi xorijiy investitsiyalar va kafolatlanmagan kreditlar hisobidan kuzatilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 184,2 % ni tashkil qildi.

Tadqiqodlarimiz natijasiga koʻra, hududlarimizda inson kapitalini rivojlantirish investitsiya muhitining jozibadorligini oshirishda quyidagilarga eʼtibor qaratish lozim: investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish; tadbirkorlarning biznes-koʻnikmalari, mahalliy hokimliklarning xorijiy investorlarni hudud toʻgʻrisida toʻliq investitsion muhitga oid maʼlumotlar bilan taʼminlashda faolligini oshirish; moliyaviy sogʻlomlashtirish, qarzlarni restrukturizatsiya qilish boʻyicha muvofiqlashtirish ishlarini olib borish; ishlab chiqarish infratuzilmasiga oid muammolarni hal etish; texnologiya va asbob-uskunalarining eskirib borayotganligini eʼtiborga olgan holda, ishlab chiqarilgan mahsulotning xalqaro standartlarga mosligini va raqobatbardoshligini taʼminlash; korxonalarda marketing xizmatini toʻgʻri tashkil qilish kabi ishlarni amalga oshirish.

Xulosa qilib aytganda, investitsiyalar mamlakatning iqtisodiy salohiyatini qoʻllab-quvvatlash va uni oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash, iqtisodiy oʻsishni faollashtirish, mahsulot va xizmatlarning ichki hamda tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Investitsiyalar YaIM oʻsishi, korxonalar rivojlanishi va mamlakat eksport salohiyatini kuchayishga olib keladi. Hudud iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish masalasini yechish uchun hududiy investitsion siyosatni ishlab chiqish zarur. Hududiy investitsion siyosat esa hududiy maʼmuriyat organlari faoliyati boʻlib, u investitsiyalar manbaini izlab topish va ularni samarali foydalaniladigan sohalarga yoʻnaltirishga qaratilgan boʻlishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Oʻzbekiston Respublikasining “Investitsiyalar va investitsiya faoliyati toʻgʻrisida” qonuni. 25.12.2019 yildagi OʻRQ-598-son
2. Ishmuhamedov A.E., Rahimova M.R., Ishmuhamedova L.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. – TDIU, 2007. –359-b.
3. Bayxonov B.T. Oʻzbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish: Iqtisod fanlar doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2019. 14 b.;
4. Keynes Dj. Obııaya teoriya zanyatosti, protsenta i deneg. — M.: Progress, 1978. – 117 b.
5. Samuelson P. Ekonomika. – M.: MGP “ALGON” VNIISI. 1992. – 204 b.